

“BAYOZI NEKIY”NING TARKIBI VA JANRLARI XUSUSIDA

H.R.Latipov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Hayotova Maxfirat

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik 1-bosqich magistranti,
Buxoro tuman 10-maktab ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada “Bayozi Nekiy”ning Buxoro san’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 27898 raqamli nusxasi, bayoz tarkibidan joy olgan shoirlar haqida va ularning asarlari ma’lumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Bayoz, “Nek”soʻzi, mumtoz adabiyot vakillari, toshbosma, muxammas, gʻazal, fard, naʼt.

“Bayoz” atamasi Sharq adabiyotida” sheʼrlar toʻplami” degan maʼnoni anglatadi. Bayozlar ikki va undan ortiq shoirlar sheʼrlaridan tuziladi. Ilk bayozlar, dastlab, mashhur shoirlarning gʻazallaridan tarkib topgan. Bayozlar tuzilishiga koʻra ikki turga boʻlinadi:

- 1) Turli shoirlarning gʻazallaridan tarkib topgan bayozlar;
- 2) Bir shoirning gʻazallari jamlangan bayozlar.

Yuqorida nomi keltirilgan bayozimiz esa 1-turga mansub, yaʼni “Bayozi Nekiy”da mumtoz adabiyot vakillarining turli janrdagi sara asarlari jamlangan.

Sarlavhaga qaraydigan boʻlsak, nega aynan “Bayozi Nekiy” deya nomlangan. Navoiy asarlar lugʻatiga qaraydigan boʻlsak, “Nek” soʻzi “yaxshi, goʻzal” degan maʼnolarda keladi. Demak, bayozning bunday nomlanishidan asosiy maqsad, uning naqadar goʻzal namunalarni jam qilganligini sezish mumkin.

Buxoro sanʼat muziyida 27898 raqamida saqlanayotgan “Bayozi Nekiy” toʻplami hijriy 1329-yilda, milodiy 1911-yilda tuzilgan. Bayozning chop etilish xususida esa quyidagicha aytiladi: “Bo ehtimomi sayi Mulla Mirzo Abdullo bin Mirzo Orif Marhumiy va shirkati Mulla Said Umarxoniy Maxdum. Toshkent dar matbaayi yakevlev”. Yuqoridagi maʼlumotlarga tayangan holda bayoz Toshkentda chop etilgan va Buxoro sanʼat muzeyiga keltirilgan. Mazkur toshbosma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi maʼlumotlarga ega boʻldik:

1. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan ushbu toshbosmaning faqat bitta nusxasi borligi aniqlandi va u 27898 raqami ostida saqlanyapti.
2. Ushbu bayoz sariq muqovada bo'lib, oddiy bezaklarsiz karton bilan qoplangan.
3. Toshbosma varag'ining hajmi 11.5x22 holatda.
4. Bayozdagi harflar hajmi 8x16 nisbatda yozilgan.
5. Bayozning saqlanish holati ancha yaxshi, harflar o'chib ketmagan. Faqat ba'zi qismlar tushib qolgan yoki umuman yozilmagan holatlar mavjud.
6. Toshbosmaning sahifalari betlangan va 144 sahifadan tashkil topgan, "Bayozi Nekiy" da hatto poygir ham berilganini ko'rish mumkin.
7. Bayozdagi matnlarning ustunlari 15 qatordan tashkil topgan.
8. Sahifaning bezatilishi uch chiziqli hoshiya bilan ziynatlangan.
9. Toshbosmaning muqova qismida asarning nomi va qayerda chop ettirilgani haqida yozib qoldirilgan.
10. Toshbosma nata'liq yozuvida yozilgan.

Toshbosma an'anaviy tarzda "Bismillahi rahmoni rahim" kalimasi orqali, ya'ni basmaladan boshlangan. Bayoz na't orqali boshlangan va mumtoz adabiyotimiz vakillarining sara g'azal va muxammaslari o'rin egallagan. Bayozda dastlab Navoiyning g'azallaridan namunalar keltirilgan, undan so'ng esa Fuzuliy, Muqumiy, Almai, Furqat, Lutfiy kabi mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlaridan parchalar o'rin egallagan. Keyinchalik, Xaziniy, Xislat, Kamiy, Mirzo Shoshiy, Azimxo'ja, Qishmashon, Samarqandiy, Munshiqi Miskin, Rizoiy, Xijlat, Noziliy, Mavlono Valiy, Mavlono Vasfiy, Hofiz, Mahzun, Muhyi kabi yosh ijodkorlarning g'azallari o'rin egallagan.

G'azallardan so'ng esa muxammaslar va fardlar o'rin egallagan. Masalan: muxammasi G'oziy bar g'azali Hotif, muxammasi Komil bar g'azali Fuzuliy, muxammasi Noqis, muxammasi Xislat bar g'azali Xaziniy, muxammasi Kamiy, muxammasi Xilvat, muxammasi G'urbat, muxammasi Nomiy bar g'azali Jomiy, muxammasi Huvaydo, muxammasi Vasliy bar g'azali Fuzuliy kabi namunalar joy olgan.

"Bayozi Nekiy" dan olingan ayrim parchalar:

Muxammasi Muhammad Alixon

Bu musalsal turralar tahriki javloningdadur,
Sonma hech ham sabodin sunbulistoningdadur,
Halqa-halqa chin-u mushkin mohboningdadur,
Toblarkim sunbul zulfi parishoningdadur,
Ey pari, men telba ohimdurki hijroningdadur.

Shavqi qadingdin qutulmas jon qushi barboddin,
Qomatingdur naxli ofat biru erur bedoddin,
Hajri qading daf' o'lurdeb xotiri noshoddin,
Bog'a kirdim topmadim man sayr ila shamshoddin,
Bu tarokat kim sani nasru xiromoningdadur.

No'shi vaslingdin der erdim jona tekur,
Jismi zorimda qiluring nishi hijrondin zuhur,
Zahri furqatdin tan ichra ruhimda yo'qdir shuur,
Joni shirindin u sondurdi mani rashki hur,
Biyla ochig' so'zki la'li shakarafshonindadur.

Yuz Neki loyiq mushabba oya nechun ko'rmadim,
Anda qoshingdek hilol la'li maygun ko'rmadim,
Tun shuoyini yuzing nuridin afzun ko'rmadim,
Kunda gustardi manga bir mehri gardun ko'rmadim,
Bu latofatki saning mehri duraxshoningdadur.

Ey saodat axtari avji malohat xovari,
Musnadi izzat sipehri uzra mohi anvori,
Husn shohi qil fano sori muruvvatparvari,
Rahm qil xoningga san ey xo'blarni sarvari,
Garchi sultoni zamondur lek zarmoningdadur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Bayozi Nekiy" Buxoro san'at muzeyidagi 27898 raqamli toshbosma nusxa.- Toshkent:1911
2. Hamidova M., Qo'lyozma bayozlar-adabiy manba,T., 1981.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati 4 jildlik (1983-1985)